

## **TALMEH SAN'ATI VA UNING G'OYAVIY-BADIIY FUNKSIYASI**

**I.S.Mannopov,**

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

**O.O.Xakimova**

Farg'ona davlat universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Sharq mumtoz she'riyatida faol qo'llangan talmeh badiiy san'atining g'oyaviy-badiiy vazifasi g'azal va hikmat janrlari tahlili misolida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *G'azal, hikmat, talmeh, ramz, tasavvuf, qofiya, radif, ritm, ishq, ishora.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье на примере анализа жанров газели и хикмата освещается идейно-художественная функция искусства талмех, которое активно используется в восточной классической поэзии.*

**Ключевые слова:** *Газель, хикмат, талмех, символ, суфизм, рифма, радиф, ритм, любовь, намек.*

### **ABSTRACT**

*In this article, the ideological and artistic function of the talmeh art, which is actively used in the Eastern classical poetry, is highlighted on the example of the analysis of the ghazal and hikmat genres.*

**Keywords:** *Ghazal, hikmat, talmeh, symbol, sufism, rhyme, radif, rhythm, love, hint.*

### **KIRISH**

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida gap borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati barcha davrda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asar mazmunini hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokatini, musiqiylikni, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan iz aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lamini, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar

mazmunini ochishdagi o'рни va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan. She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligi sanaladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sharq mumtoz adabiyoti ijodiy an'anaga asoslangan bo'lib, g'oyaviy-badiiy ifoda zaminida o'zgarib, yuksalib borgan. An'anaviy g'oya, mavzu, obraz va tasvir vositalariga tayanib faoliyat ko'rsatgan bu adabiyot dunyo badiiy tafakkurida beqiyos mavqe egallagan. Ammo bunga osonlikcha, yengil-yelpi ijodiy mehnat bilan erishilmagan, albatta. Chunki an'ana degani hammasi oson, bari ilhombaxsh va ibratli degani emas. Har qanday an'ana singari adabiy an'anada ham ijobiy, eskirmas tomonlar bilan birga vaqt o'tishi bilan qiymatini boy bergan, qaytariq yoki bir xilligi bilan o'quvchini bezdiradigan u yoki bu jihatlar mavjud bo'lgan. Har bir ulkan san'atkor eskirgandan kechish yoki uni yangilash bilan birga, yo'qni bor etish, ya'ni ixtirochilik salohiyatini ham namoyon qiladi. Shu ma'noda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning ijod tajribasi tarixda nihoyat darajada siyrak yuzaga chiqadigan hodisadir.

Sharq mumtoz adabiyotida an'anaviylik ustuvor. Bu badiiy tasvirda ham, obrazlar olamida ham, mazmun va mundarijada ham kuzatiladi. Ammo, zohiran qaraganda, bir xillik, o'xshashlik bo'lib tuyuladigan bu holat zamirida ham har bir ijodkorning individual, o'ziga xos poetik ifoda usullari shakllanib borgan. Zotan, mashhur allomalarimiz ijodkorning mahorati va o'ziga xosligi asarda nimani ifodalashiga qarab emas, balki voqelikni qanday tasvirlashiga qarab belgilanishini ta'kidlashadi. G'azalning dastlabki baytida mahbuba kipriklarining tashqi ko'rinishi va oshiq qismati bilan munosabati, ma'lum darajada, sokinlik bilan tasvirlanadi.

Ammo ikkinchi baytdanoq, harora g'azallarga xos bo'lgan jo'shqin pafos yuzaga chiqadi. Shoira talmeh san'atini qo'llab, "Analhaq" — Mansur Halloj maqomi va taqdirini yodga oladi. Shu o'rinda qo'llangan talmeh baytni ziynatlabgina qolmay, balki g'azal mazmunini, uning yo'nalishini, lirik qahramon xarakterini belgilashda juda katta badiiy vazifa ham bajargan:

Bu ushshoq ahlini qasdinakim saf chekti mujgonlar,  
Tutubon aql-u hush idrokini band etti mujgonlar.  
Na sahrov-u na shahr-u na vatan ichra qaror etgum,  
Analhaqdek o'ziga mast etib mahv etti mujgonlar

Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"i dunyoga kelishi bilan turkiy xalqlar o'zining mustaqil tariqat kitobiga, tom ma'nosi ila Ma'rifat, Haqiqat, Ruhoniyat qomusiga sohib millat o'laroq e'tirof etilgan. Ahmad Yassaviydan keyingi turkiy xalqlarning tarixi - ma'naviy-axloqiy hayotda yangi yo'nalish, yangi ilohiy nuqtai nazar shakllangan, komil inson haqidagi tasavvurlar to'la oydinlashgan tarix erur. Zero, arab va fors tasavvuf tushunchalarini milliy ehtiyojga muvofiq ravishda o'zlashtirish va favqulodda sodda, xalqona talqinlarni yaratishni ham tarix Ahmad Yassaviy zimmasiga yuklagan edi.

"Devoni hikmat" insonni nafsparastlikdan, ma'rifatsizlik va yirtqichlashuvdan muhofaza etadi. "Devoni hikmat" odam farzandini shaytoniy hiylalar, hayvoniy quturishlardan asraydi. Bu bebaho asar hirsu havoga berilib "odamiyatni pok-pokiza yeb" qo'yish kulfat va musibatlaridan ogohlantiradi. Hamma gap uni qanday o'qish va qanday anglash, anglabgina qolmasdan Yassaviy so'zlariga amal ham qila bilishdadir. Bir narsa ma'lum: "Devoni hikmat"ning keyingi asrlarga mansub qo'lyozma va toshbosma nusxalarida hikmatlarning umumiy miqdori ancha ko'pdir. Buning bir isboti sayramlik olim Mirahmad Mirxoldoro'g'li bilan usmonli turk olimi Metin Oqarning Istanbulda bosilgan "Xoja Ahmad Yassaviyning yangi topilgan hikmatlari" nomli kitobi hisoblanadi.

"Devoni hikmat"i turli asrlarda turli joylarda bir qancha kotiblar tomonidan ko'chirilgan. XIX-XX asrlarda Toshkent, Kogon, Qozon, Istanbul kabi shaharlarda toshbosmada chiqarilgan. Oktyabr inqilobidan keyin esa Ahmad Yassaviy ijodi qatag'on qilinishi bilan xalqimiz "Devoni hikmat"dek buyuk bir asarni o'qishdan mahrum qilingan. Lekin xorijda, ayniqsa, Turkiyada Ahmad Yassaviy ijodiga qiziqish va uni o'rganish ishlari to'xtab qolmadi. Shuning natijasi sifatida 1983 yil doktor Kamol Eraslonning "Devoni hikmat"dan sochmalar" kitobi nashr etilgan.

Talmeh arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "chaqmoq chaqilishi", "bir nazar tashlash" demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir.

*Sulaymon saltanatlik podshosen,*

*Masih anfoslik, Yusufliqosen.*

Ushbu baytda uchta shaxs nomi: Sulaymon, Masih va Yusuf tilga olingan. Ularning uchalasi haqida ham faqat o'zbeklarda emas, turli xalqlarda juda ko'plab afsona, rivoyat, qo'shiq, hatto dostonlar yaratilgan. Ular bilan bog'liq rivoyatlar "Qur'on" da ham qayd etiladi. Ma'lumki, Sulaymon – Dovud payg'ambarning o'g'li edi, u o'n to'qqiz aka-uka orasida eng donishmandi bo'lgan. Shu tufayli u barcha yer yuzidagi odamlarnigina emas, qurt-u qumursqaga, qushlarga, hatto "ins-u jinslar"ga

ham hukmronlik qilgan. “Sulaymon saltanatlik podshosen” misralari ana shu afsonaviy shaxs qudratini mo‘jaz shaklda eslash orqali badiiy tasvir qahramonini tavsiflashga xizmat qilmoqda.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,

Bukun Ya’qubtek bayt ul-hazanda.

Bu yerdagi talmeh “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlardan xabardor bo‘lishni taqazo etadi. Ma’lumki, Yusuf Ya’qub payg‘ambarning sevimli farzandi bo‘lgan. Ammo taqdir ayni mana shu farzandidan muayyan muddat ayrilib yashashini ravo ko‘radi. Natijada ota g‘am uyi (bayt ul-hazan) da yashashga majbur bo‘ladi. Yusuf o‘zining tashqi ko‘rinishi – go‘zalligi bilan ham boshqalardan ajralib turar edi. Demak, lirik qahramonning o‘z mahbusasiga “Yusufi husn” deb murojaat etishi bejiz emas.

### **XULOSA**

Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: badiiy san`atlar har tomonlama mukammal, o‘zining badiiy nafosati bilan , xilma-xil ifoda usullari bilan berilgani-o‘zbek tilimizning g‘oyatda boyligi va go‘zalligini, shuningdek, nozik va teranligini yorqin hamda jonli lavhalarda ifodalashini ko‘rsatib turibdi. She’riyatda talmeh san’atining qo‘llanilishi unga yashirin ma’nolar va shifrlangan tildan mohirona foydalanish orqali chuqur g‘oya va tuyg‘ularni yetkazish imkonini berdi, she’riyatini ham jozibali, ham aqliy jozibador qildi.

Sharq mumtoz adabiyotida g‘azal yetakchi janr. Uning mavzu, tuzilish jihatidan turlari borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur janrni taraqqiy ettirishga o‘z hissasini qo‘shar ekan, uning shakliy jihatdan ham noyob turlarini yaratishga erishadi. Ahmad Yassaviydan keyingi turkiy xalqlarning tarixi - ma’naviy-axloqiy hayotda yangi yo‘nalish, yangi ilohiy nuqtai nazar shakllangan, komil inson haqidagi tasavvurlar to‘la oydinlashgan tarix hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Nashrga tayyorlovchi R.Abdushukurov. Toshkent, 1992.
2. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/talmeh/>
3. Адабий тур ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд. Лирика. – Тошкент: “Фан”, 1992.
4. Болтабоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
5. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. О.Носиров ва бошқалар. – Тошкент: ”Ўқитувчи” нашриёти, 1979.

6. Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт матбаа концерни бош таҳририяти, 1999.
7. Mannopov, I. S. (2020). THE ISSUE OF AUTHORSHIP OF THE POETICS IN DIVANI HIKMAT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 411-414.
8. Sultonalievich, M. I. (2020). YASSAVI LITERATURE AND ITS EMERGENCE. *Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 9(8), 26-33.
9. Mannopov, I. S. (2020). THE ISSUE OF AUTHORSHIP OF THE POETICS IN DIVANI HIKMAT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 411-414.
10. Sultonalievich, M. I. (2018). Akhmad Yassaviy and the Tradition of Hikmats. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(4), 59-65.